



PEDAGOGIKA

4/2015

ilmiy-nazariy va metodik jurnal

MUNDARIJA

BOSH MAQOLA		MATEMATIKA VA TABIIY-ILMIY FANLAR TA'LIMI	
Sharipov Sh. S., Muslimov N. A.		To'xtamatov X. R.	
Professor-o'qituvchilar salohiyati – davr talabi.....	2	Zamonaviy ta'limda an'anaviy va masofadan o'qitish shakllari integratsiyasi.....	59
UNIVERSITETNING 80 YILLIGI		Ahmedov A., Kamolova D., Artikov X.	
Xodjayev B.		Fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarishda takomillashtirilgan texnologiya.....	65
Respublika pedagoglarining ilmiy maktabi.....	6	Ashurova D. N.	
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIK INNOVATIKA		Informatika fanini o'qitishda loyiha texnologiyasidan foydalanish tajribasidan.....	68
Sharipov Sh. S.		Najmiddinova G., Mo'minova S.	
Ilm-fan taraqqiyoti va ilmiy maktablar.....	11	Fizika va astronomiya fanlarini kasbiy sohalarga yo'naltirib o'qitish.....	72
Shodmonova Sh., Hakimova D., Sulaymonova M.		IJTIMOIIY VA GUMANITAR FANLAR TA'LIMI	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish.....	20	Majidova R., Sultonova Sh.	
Rasulov I.		Zamonaviy leksikografiya: elektron lug'atlarning imkoniyatlari.....	76
Uzluksiz ta'lim tizimida loyihalash madaniyatini rivojlantirish talqini.....	24	Бабаниязова Н.	
Xo'janioyozova Z. O.		О внедрении модульной системы обучения на уроках английского языка в академических лицеях Республики Каракалпакстан.....	81
Globallashuv jarayonining yoshlar tarbiyasiga ta'siri.....	32	Mavlonova K.	
Утебаев Т. Т.		Umumiy o'rta ta'lim jarayonida badiiy matndagi inson ruhiyati talqini.....	86
Педагогическая наука и развитие непрерывного образования в Республике Каракалпакстан.....	37	Рахманкулова Н., Жумашева Г.	
G'ulomov J.		Овладения навыками и умениями общения на каракалпакском языке.....	91
Neuropedagogika: rivojlantirish asoslari.....	41	Назарова М.	
Asqarova N. A.		Перцептивный аспект овладения полисемией при чтении иноязычного текста.....	98
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilish jarayonini korreksiyalashga doir.....	48	FAN VA TA'LIM FIDOYILARI	
Mirxajayeva D. B.			
Bolada qo'rquvni keltirib chiqaruvchi psixologik omillar.....	54		

сочетается с модульной. Очень хорошо вписывается в модульное обучение вся система методов, приёмов и форм организации учебно-познавательной деятельности учащихся. Словом, модули можно использовать на любом этапе обучения и, тем самым, усиливать качество и эффективность преподавания.

По оценкам исследователей (П. И. Третьякова, И. Б. Сеновский, П. Юцявичена и др.), модульное обучение позволяет сократить учебный курс дисциплины примерно на 30% без ущерба для полноты изложения и глубины усвоения материала. Сжатие учебного материала посредством укрупненного, системного его представления происходит втрое при первичном, промежуточном и конечном обобщении.

Все вышеизложенное приводит нас к выводу, что модульная технология обучения является наиболее адекватной формой расширения знаний и формирования навыков учащихся по английскому языку.

UMUMIY O'RTA TA'LIM JARAYONIDA BADIY MATNDAGI INSON RUHIYATI TALQINI

Mavlonova K. (TDPU)

Abstract

The questions of activation of lexis expressing the human psyche in the literary texts that are used at the lessons of native language is considered in this article.

Резюме

В статье рассматриваются вопросы активизации лексики, выражающей психику человека, встречающейся в художественных текстах, которые используются на уроках родного языка.

Tayanch tushunchalar: *badiiy matn, obrazli fikrlash, ruhiyatni ochuvchi so'z va iboralar, ruhiy tahlil, nutqiy ta'sirchanlik, ijodiy matn tuzish, integratsiya, adabiy qobiliyat.*

O'quvchining obrazli fikrlashi badiiy asarlar mutolaasi jarayonida boyib, shu asosda nutq o'sishi jarayonida sayqallanib boradi. Shuning uchun ham ona tili darslarida adabiy materiallardan illustrativ material sifatida foydalaniladi. O'quvchilar badiiy asardan olingan kichik parchani o'qib, so'z va grammatik vositalardan obraz yaratish usullariga, g'oya tomon boradi, so'zlar va so'z shakllari, ifoda vositalari orqali muallif fikrini to'g'ri anglashga erishadi, badiiy so'z go'zalligini qadam-baqadam kashf etib boradi. Bu ishlar o'quvchilarni

malakali kitobxonga aylantiradi va bu, o'z navbatida, badiiy so'zning ular qalbiga yaratuvchilik ta'siri uchun shart-sharoitni vujudga keltiradi.

O'quvchining so'z boyligini oshirishda asar qahramoni yoki yozuvchida tug'ilgan ruhiy holatni nutq sharoitiga mos hamda vaziyatga ko'ra o'zgarib borishi qanday tasvirlanganligini kuzatib va qayd etib borish katta ahamiyatga ega. Aytilmoqchi bo'lgan fikr, tasvirlanayotgan predmet yoki ruhiy holatni eng aniq va eng yorqin ifoda eta oladigan so'z va iboralarni topa bilish yozuvchining mahoratiga bog'liq. "So'z ishlatish mahorati bilan tanishish o'quvchilarni ona tilining imkoniyatlari haqidagi bilimlar bilan boyitadi, adabiy tildagi xilma-xil uslublarning qo'llanish qonun-qoidalaridan voqif etadi. Ona tilining go'zalligini anglash, uning har qanday fikrni, har qanday tuyg'uni ifodalashdagi bitmas-tuganmas imkoniyatlarini bilishga yordam beradi. Ko'rish va anglashgina emas, balki til boyligidan o'z nutqida faol foydalanishga ham ko'maklashadi"¹.

Badiiy asarni ruhiy tahlil qilish masalalari Q. Husanboyeva, Q. Yo'ldoshev kabi metodist olimlar tomonidan mufassal ishlab chiqilgan. Ular keltirgan tahlil namunalari o'rganish orqali asar qahramonlarining ruhiyatini ikki xil yo'l bilan ochilishini kuzatish mumkin:

1. Asar qahramonlarining xatti-harakatlari, yuz bergan voqea-hodisalar, ularning shu haqdagi fikr-o'ylari.

2. Bevosita asar qahramonlarining ruhiyatini ochuvchi so'zlar va iboralar.

Adabiyot darslarida o'tkaziladigan ruhiyat tahlilida ko'proq birinchi holat e'tiborga olinadi. Asar qahramonlarining ruhiy holatini asarning har bir gapi orqali tahlil qilib borish uchun esa deyarli imkon bo'lmaydi. Shuning uchun adabiyot darslaridagi ruhiyat tahlilida asar qahramonlarining hayotini keskin burib yuboradigan, taqdiriga ta'sir etadigan holatlar tasviri bo'lmish ruhiyatni ochuvchi so'z va iboralarga o'quvchilarning e'tibori qaratiladi.

"O'quvchilar badiiy asar qahramonlarining ayni holatda nima uchun matndagiday o'ylaganligi, iztirobga tushganligi, quvonganligi yoki harakat qilganligi sababini topishga o'rgatilishi kerak"². Ana shunday sabablarni topish uchun o'quvchilar qahramonlar ruhiyatini ifodalovchi so'z va iboralar bilan tor doirada bo'lsa-da, tanishib borsalar, ta'sirchan, tuyg'ularga boy ifodalarga e'tibor qaratsa, ularda fikriy tiniqlik va aniqlik yuzaga keladi, ular og'zaki va yozma nutqida so'zlardan ijodiy foydalana borib, o'z nutqining ta'sirchanligiga erishadi va insonlar ruhiyatiga hamohang bo'ladi. "Insondagi ismsiz tuyg'ular, nozik kechinmalar, ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib, qo'l bilan ushlab, til

¹Альбеткова Р. И. Методические рекомендации к учебнику Русская словесность. От слова к словесности. 5 класс. – Москва: Дрофа, 2001. – С. 128.

²Yo'ldoshev Q. Adabiy saboqlar. – Toshkent: Sharq, 2003. – B. 106.

bilan totib, burun bilan hidlab bo'lmaydigan ruhiy holat jilvalarini faqat so'z yordamida ifoda etish mumkin. Badiiy adabiyot san'atning boshqa turlaridan asosiy ish quroli ham, materiali ham "so'z" ekanligi bilan ajralib turadi¹. Ona tili darslarida o'quvchilar ruhiyatni ochuvchi so'zlar bilan tanishibgina qolmay, o'z insholarida ham bunday so'zlardan foydalanishga intiladi, lekin buning uchun ularda ruhiy holatni anglash va shu holatlarni so'z vositasida ifodalashga doir ko'nikmalarni hosil qilish talab etiladi.

A. Ergasheva o'quvchilar nutqini o'stirishda badiiy asar qahramonlarining turli hayotiy vaziyatlardagi, biror ish-harakatni bajarishidagi umumiy va ruhiy holatini ko'z oldiga keltirib fikrlashga undash foydali ekanini ta'kidlaydi².

Ona tili darslarida badiiy matnda uchraydigan qahramonlar ruhiyatini ochuvchi leksika bilan tanishtirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va hayotiy tajribalari bilan mos keladigan metod va usullarni tanlash alohida pedagogik ahamiyatga ega. Bu tushunchalarning izchil tizim tarzida berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday metodik ishlar natijasida o'quvchilarning ushbu hodisalar haqidagi tasavvur va bilimlari kengayadi, badiiy asar tilini o'rganishga ishtiyoq tabiiy holda uyg'onadi, o'quvchilarning badiiy didi yuksalishiga xizmat qiladi. Buning uchun quyidagi ish turlaridan foydalanish mumkin:

I. Ona tili darsligida berilgan badiiy matndan asar qahramonining ruhiy holatini ochib beruvchi gaplarni aniqlash:

- a) gaplardagi so'z va ifodalarning ma'nodoshi yoki zid ma'nosini topish;
- b) yozuvchi nima uchun aynan shu variantni tanlaganini izohlash.

II. Berilgan gapni ruhiyatni ochuvchi so'z va iboralar bilan kengaytirish.

III. Adabiyot darsligidagi yoki mustaqil o'qilgan badiiy asarlardan qahramonlarning ruhiy holatini ifodalagan so'z va iboralarni topish.

IV. Qahramonlar ruhiy holatini ochib beruvchi so'z va iboralardan o'rinli foydalangan holda ijodiy matn tuzish.

Quyida ushbu ish turlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Ona tili darsligida berilgan badiiy matndan asar qahramonining ruhiy holatini ochib beruvchi gaplarni aniqlashda muammoli vaziyat paydo qilishdan oldin o'quvchilarda dastlab tasavvurni kengaytirish zarur. Shundan keyingina ularda bilish jarayoni boshlanadi. Masalan, 5-sinflarda 202-mashqda keltirilgan badiiy matndagi

¹Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot: 7-sinf. – Toshkent: Sharq, 2009. – B. 368.

²Эргашева А. Она тили дарсларида назарий маълумотларни мустақкамлаш жараёнида нутқ ўстириш методикаси. – Тошкент: Fan va texnologiyalar, 2010. – Б. 51.

anqovlanib, o'ylanib, xafa bo'lib kabi so'zlar o'quvchilar bilan ...suhbat orqali izohlanishi mumkin¹:

Yozuvchining nima uchun aynan shu so'zdan foydalanganiga o'quvchilar e'tibori matndan kelib chiqib qaratiladi. *O'ylanib, xafa bo'lib* so'zlari ham shu tarzda izohlanadi.

6-sinfda 195-mashq shartida matnni o'qish, holat fe'llarini topib ko'chirish va izohlash vazifasi berilgan²:

Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko'zlari jovdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi. Xotinlar o'g'rini qarg'aydi, it huradi, tovuqlar qaqqag'laydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga aql ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi. (Abdulla Qahhor)

O'quvchilar o'qituvchi ko'magida umumiy holatga, aniq holatga va ruhiy holatga oid so'z va iboralarni topib izohlaydi.

7-sinfda esa 94-mashqda keltirilgan badiiy matndan o'quvchilar quyidagi gapni ajratib izohlashlari mumkin³: *O'g'ilchasini yetaklab olma, apelsin to'ldirilgan sumkani ko'targanicha javdirab kirib keladi-da, xotining oyoq tomonida o'tirib unga termiladi. Javdirab* so'zida bemor ayolning eridagi ruhiy holat aks etgan bo'lib, asar qahramonining najot izlab, iltijo bilan qarashi, termilishi o'quvchini o'ylashga, mulohaza yuritishga undaydi.

Berilgan gapni ruhiyatni ochuvchi so'z va iboralar bilan kengaytirish mashqida uni badiiylashtirish vazifasini topshirish mumkin. Bu ishda ham o'quvchi o'zi tanlagan so'zni izohlab, isbotlashga harakat qiladi. Kishilar holati va ruhiyatini gapda aks ettirishda sifat, sifat-dosh, ravishdoshlar va iboralardan foydalanishning ahamiyati katta ekanligi haqida o'quvchilarga tushuncha berish va bu orqali ularda muayyan ko'nikmalarni shakllantirish mumkin. Masalan: *Sodiq uyga kirib keldi* gapini tahrir qilish uchun o'quvchilar ruhiy holatni ifodalovchi quyidagi so'z va iboralardan foydalanishlari mumkin: "zo'rg'a", "tarvuzi qo'ltig'idan tushib", "hayron bo'lib", "og'zi qulog'ida", "boshini quyi solib", "istar-istamas", "xayolchan", "shoshilib", "bir nimasini yo'qotgan odamday" va hokazo.

¹Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'raboyeva Z. Ona tili: 5-sinf. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007. – B. 69-70.

²Qarang: Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili: 6-sinf. – Toshkent: Tasvir, 2009. – B. 72-73.

³Qarang: Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili: 7-sinf. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – B. 160.

Demak, ushbu vositalar orqali gap tahrir qilinganda, uning mazmundorligi ortishi bilan bir qatorda, tinglovchiga yetkazilayotgan ma'lumot yanada oydinlashadi.

Adabiyot darsligidagi yoki mustaqil o'qilgan badiiy asarlardan qahramonlarning ruhiy holatini ifodalagan so'z va iboralarni topish uyda bajarilishi ko'zda tutilgan ishlardan bo'lib, bunda o'quvchilar yozuvchi yoki asar qahramonining ruhiy holatini ifodalovchi so'z va iboralarni o'qituvchining ko'magisiz, mustaqil izlanib topadilar va qaysi so'z turkumiga oid so'zlar faol ishlatilishini o'zlari bevosita aniqlaydilar. O'qituvchi o'quvchilarga qaysi yozuvchilarda ushbu vositalar kengroq talqin etilishi haqida ko'rsatmalar berishi mumkin. Ma'lumki, o'quvchilarning inson ichki ruhiy olami tavsifiga oid leksikani va badiiy matnda muhim ahamiyatga ega baho beruvchi so'z va iboralarni anglamasliklari natijasida ularda asarni badiiy idrok etishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ona tili darslarida shunday vositalarga murojaat etish orqali asarda badiiy qiymat qay tarzda ifoda etilganini ko'rsatish, shu asosda, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish anglanadi. Natijada ona tili va adabiyot darslarida ikki tomonlama integratsiyalash uchun poydevor yaratiladi.

Qahramonlar ruhiy holatini ochib beruvchi so'z va iboralardan o'rinli foydalangan holda ijodiy matn tuzish mashqi o'quvchilarda inson ruhiyatini ochib beruvchi so'zlar haqida muayyan malakalar hosil bo'lgandan keyin amalga oshiriladigan tadbirlardan biri sanaladi. Bunda ularning to'g'ri, mantiqli va ta'sirchan matn tuza olish malakalari sinovdan o'tkaziladi. Ijodiy matn tuzish orqali o'quvchi tinglovchiga (suhbatdoshiga) badiiy ta'sir o'tkazish layoqatini egallaydi, badiiy matnning til xususiyatlarini shu maqsadda tadqiq eta boshlaydi. Badiiy ta'sir o'tkazish esa quyidagi holatlar asosida yuzaga chiqadi:

- a) suhbatdoshida biror ruhiy holatni paydo etish (his-tuyg'u uyg'otish, kulgu qo'zg'atish, unga quvonch bag'ishlash va hokazo);
- b) biror ish-harakatga undashning ta'sirchan vositalarini qo'llash (maqol va matallar keltirish, hikmatli so'zlar, obrazli ifodalar va boshqalarga murojaat etish).

Badiiy matndagi ruhiyatni ochib beruvchi so'zlarni o'rganish ona tilini adabiyot o'quv fani bilan integratsiyalash asosida o'qitishdan ko'zlanadigan asosiy maqsadlar sirasida ko'rsatilmog'i darkor. O'quvchi shunday ta'sir usullari bilan tanishibgina qolmay, o'zi ham ulardan foydalanish imkoniga ega bo'lishi kerak. Ayni badiiy matn insonning ruhiy olamiga keng ko'lamda ta'sir etadi, hosil qiluvchi til hodisalarini o'zida mujassamlashtiradi, bilan izchil tanisha borishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati katta. Shuningdek, badiiy asar

o'quvchini inson ruhiyati olamiga olib kiradi, ana shu ruhiyatni so'z va grammatik vositalar yordamida o'zgalarga yetkazish mahorati bilan tanishtiradi. Ana shu jarayonda mustaqil fikrlash, his etish va yaratishga o'rganish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, insonning ruhiy olami tavsifiga oid so'z va iboralar qahramonlarning ruhiy dunyosi, ta'sirlanish xususiyati, tafakkur tarzi va ko'ngil nidolari bilan o'quvchilarga zavq bag'ishlaydi, ularda qiziqish uyg'otadi. Nafaqat o'zgalarni, balki eng qiyin masala – o'zini tushunish, anglash va o'zini o'zi taftish qilishga undaydi. Shu bilan birga, o'quvchilarda adabiy qobiliyatlarni o'z vaqtida aniqlash, bunday qobiliyatlarni yanada taraqqiy ettirish va takomillashtirishning to'g'ri yo'llarini ko'rsatib berish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Ona tili darslarida mashq materiali sifatida keltirilgan badiiy matnlardagi inson ruhiyatini ochib beruvchi so'zlar bilan tanishish orqali o'quvchilar aqlini charxlash, dunyoqarashini kengaytirish, hissiyatini boyitish va shu asnoda obrazlar mohiyatiga oid bo'lgan tushuncha va so'zlarni faollashtirish mumkin.

ОВЛАДЕНИЕ НАВЫКАМИ И УМЕНИЯМИ ОБЩЕНИЯ НА КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКЕ

Рахманкулова Н. Х. (ЦИП и ПКРНО)

Жумашева Г. Х. (Нукус ГПИ)

Abstract

The article is devoted to the question of formation of communication skills in Karakalpak language at children of preschool age and primary classes. It states that creation of new manuals on teaching Karakalpak as a second language must be based on the rich culture of Karakalpak people.

Rezume

Maqola maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim jarayonlarida bolalarning qoraqalpoq tilida muloqot qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirish masalasiga bag'ishlangan. Unda qoraqalpoq tilini ikkinchi til sifatida o'qitish bo'yicha yangi uslubiy qo'llanmalar yaratishda qoraqalpoq xalqining boy madaniyatiga tayanish zarurligi haqida so'z boradi.

Основные понятия: проблема, формирование, навык, общение, каракалпакский язык, основа образования.

С установлением независимости в Узбекистане, придание каракалпакскому языку статуса государственного обусловило необходимость усиления коммуникативной направленности и